



UDK: 81'374:811.512.133

Alisher UBAYDULLAYEV,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
E-mail: a.ubaydullayev@nuu.u

O'zMU professori N.Rahmonov taqrizi asosida

DICTIONARIES COMPILED FOR "GULISTAN" AND THEIR ROLE IN THE LEXICOGRAPHY OF THE OLD UZBEK LANGUAGE AND THE STUDY OF TRANSLATION STUDIES

Annotation

The article examines the current issues of studying classical literature samples on the basis of originality, informing students about manuscript sources, preparing them as specialists, publishing classical sources on the basis of manuscript copies, preparing excellent scientific commentaries, conducting new scientific and theoretical research in the field of source studies and textual studies, and the explanation of words used in the works "Dictionary "Gulistan" and "Boston". The Agahi translation of "Gulistan", linguistic and translation problems encountered in the translation of these dictionaries, and the explanation of words are studied.

Key words: Lexeme, lexicology, lexicography, folklore, old Uzbek language, siyakhchashm, atashkunanda, dudho, mustasqi, Kashshof.

СЛОВАРИ, СОСТАВЛЕННЫЕ ДЛЯ «ГУЛИСТАН», И ИХ РОЛЬ В ЛЕКСИКОГРАФИИ СТАРОУЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА И ИЗУЧЕНИИ ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЯ

Аннотация

В статье рассматриваются актуальные вопросы изучения образцов классической литературы на основе оригинальности, информирования студентов о рукописных источниках, подготовки их как специалистов, издания классических источников на основе рукописных копий, подготовки прекрасных научных комментариев, проведения новых научно-теоретических исследований в области источниковедения и текстологии, а также объяснение слов, используемых в трудах «Словарь «Гулистан» и «Бостон». Изучаются перевод «Гулистана» на агахинский язык, лингвистические и переводческие проблемы, возникающие при переводе этих словарей, и объяснение слов.

Ключевые слова: Лексема, лексикология, лексикография, фольклор, староузбекский язык, сияхчашм, аташкунанда, дудхо, мустаски, кашшоф.

"GULISTON" UCHUN TUZILGAN LUG'ATLAR VA ULARNING ESKI O'ZBEK TILI LEKSIKOGRAFIYASI HAMDA TARJIMASHUNOSLIK TADQIQIDAGI O'RN

Annotatsiya

Maqolada mumtoz adabiyot namunalarini asliyat asosida o'rganish, talabarlarni qo'lyozma manbalardan xabardor qilish, ularni mutaxassis sifatida tayyorlash, mumtoz manbalarni qo'lyozma nusxalar asosida nashr etish, mukammal ilmiy izohlar matnini tayyorlash, manbashunoslik va matnshunoslik yo'nalishida yangi ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri ekanligi, "Lug'ati "Guliston" va "Bo'ston" asarida qo'llangan so'zlarning izohlanishi tadqiq etilgan. "Guliston" asarining Ogahiy tarjimasi, bu lug'atlar tarjimasida duch kelgan lingvistik va tarjimonlik muammolari hamda so'zlarning izohlanishi tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Leksema, leksikologiya, leksikografiya, farhang, eski o'zbek tili, siyohchashm, otashkunanda, dudho, mustasqi, Kashshof.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-mayda qabul qilingan "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2995 -sonli Qarori, shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 23-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetiga tashrifi chog'ida o'zbek mumtoz adabiyotiga taalluqli manbalarni o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini yo'lga qo'yish, shu yo'nalishda birinchi navbatda yetuk manbashunos va matnshunos kadrlarni tayyorlash vazifa qilib belgilangan. Qarordan kelib chiqqan holda, bugungi globalashuv davri barcha sohalar qatori ta'lim-tarbiyani ham sifat jihatdan yuqori bosqichga ko'tarishni taqozo etmoqda.

Yuksak intellektual salohiyatga ega bo'lgan yosh avlod ma'naviy jihatdan ham barkamol bo'lishi bugungi kun talabidir. Millatning kelajagi bo'lgan yetuk, komil yoshlarni tarbiyalashda mumtoz adabiyotimizning daho ijodkorlari

asarlarida ilgari surilgan umuminsoniy g'oyalar targ'ibi alohida kasb etishi hech kimga sir emas. Bugun adabiy merosimizni yangicha nuqtai nazar bilan xolis tadqiq va targ'ib etishga, baholashga e'tibor qaratilganligi diqqatga sazovordir. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev mumtoz adabiyotimizni, jumladan, qo'lyozma asarlarni xalqimizga yaqinlashtirish, bunday noyob merosni haqiqatdan ham, ma'naviyatimizning asosiy manbaiga aylantirish barchamizning vazifamiz ekanligini alohida ta'kidlab kelmoqdalar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbek xalqining boy ilmiy-ma'naviy merosi, adabiyot va san'ati haqidagi qimmatli ma'lumotlar qo'lyozma manbalarda aks etgan. Lug'atshunoslik tarixidan ma'lumki, qator qo'lyozma lug'atlar muayyan maqsadlarda tuzilgan. Ularning har biri original, biri ikkinchisini takrorlamaydi. Qo'lyozma lug'atlardagi leksik birliklar "Devonu lug'otit turk" va XV-XIX asrlarda tuzilgan "Badoe-ul-lug'at", "Sangloh", "Abushqa", "Lug'ati atrokiya"

kabi lug'at materiallari o'zaro qiyoslanganda, fonetik, leksik-semantik farqlarni ko'rish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Leksemalarni diaxron jihatdan o'rganishda tilning rivojlanish bosqichlariga alohida e'tibor qaratiladi. Shuning uchun tarixiy jarayonlar so'z ma'nolarining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi. So'z ma'nosi iste'mol doirasining kengayishi, uning ma'no o'ttenkasidagi o'zgarishlar ham til taraqqiyotida o'ziga xos mavqeni egallaydi. So'zlarning yangi ma'nolar bilan boyib borishi qonuniy jarayon hisoblanadi. Leksikada har bir leksema ma'nosining o'zgarishi, yangi ma'noda qo'llanishi, iste'moldan chiqishi, uning passivlashishi va faollashishi kabi jarayonlar kuzatiladi. Shu nuqtai nazardan so'z ma'nosini tarixiylik asosida tekshirib aniqlash yangi so'zlarning yuzaga kelishi qonuniyatlarini ochib berishda ayniqsa ahamiyatlidir.

So'z tarixan jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan. Har bir leksik birlik o'rni bilan bir-biriga yaqin yoki alohida-alohida tushunchalarni anglatishi mumkin. So'z ma'nolari va ma'no nozikliklari bosh va ko'chma ma'nolar kabi alohidalikka egaligi bilan ajralib turadi. So'z ma'nolaridan biri individual tarzda, boshqa holatlari esa kishilar tomonidan ko'chma ma'no hosil qilish jihatlariga ko'ra ajratiladi. Aslida so'z ma'nosining kengayish, rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish so'zlarning omonimik, sinonimik, paronimik, antonimik va ko'pma'nolilik xususiyatlarini aniqlash, tilning lug'at boyligini kuzatish, turli lug'atlar tuzishga katta yordam beradi [1]. Shaklan bir xillikka ega bo'lgan ikki va undan ortiq ma'noning bir shaklda uchrashi hollarini matnda ko'rish mumkin [2].

Tahlil va natijalar. Shayx Muslihiddin Sa'diy Sheroziy (taxm. 1210-1292) nafaqat fors-tojik adabiyotining, balki jahon adabiyotining buyuk namoyandalaridan biridir. Uning "Guliston" (1258) va "Bo'ston" (1257) asarlari asrlar davomida Sharq xalqlari, jumladan Markaziy Osiyo mintaqasida ham axloqiy-ma'rifiy tarbiya va badiiy mahoratning yuksak namunasi sifatida e'zozlanib kelingan. Bu asarlarning keng tarqalishi, maktab va madrasalarda darslik sifatida o'qitilishi [3] natijasida ularda uchraydigan ayrim murakkab so'zlar, iboralar, tarixiy shaxslar, joy nomlari va majoziy ma'nolarni sharhlashga ehtiyoj tug'ilgan. Bu ehtiyoj o'z navbatida "Guliston" va boshqa mumtoz asarlar uchun maxsus sharhlar va lug'atlarning yaratilishiga turtki bo'lgan. Ayniqsa, hijriy XI (milodiy XVII) asrdan boshlab bunday leksikografik asarlarning ko'payishi kuzatiladi. Bu davrda mintaqada savodxonlik darajasining nisbatan ortishi, mumtoz adabiyotga qiziqishning kuchayishi klassik matnlarni chuqurroq anglash zaruratini yuzaga keltirgan.

"Guliston" uchun tuzilgan lug'atlar ("farhang" yoki "sharh" deb ham ataladi) bir necha jihatdan katta ilmiy ahamiyatga ega:

1. Matnni tushunish: Ular, birinchi navbatda, Sa'diyning o'ziga xos uslubi, til boyligi, majoziy iborolari va falsafiy qarashlarini anglash uchun muhim vosita bo'lgan.

2. Tarixiy leksikografiya manbai: Bu lug'atlar fors tilining tarixiy leksikasini, so'zlarning ma'nolarida yuz bergan o'zgarishlarni (semantik taraqqiyotni) o'rganish uchun qimmatli manba hisoblanadi [4].

3. Madaniy aloqalar ko'zgusi: Lug'atlarning turli hududlarda (masalan, Eron, Markaziy Osiyo, Hindiston, Usmonlilar saltanati) yaratilgani fors tili va adabiyotining xalqaro miqyosdagi ta'sirini va bu tilni o'rganishga bo'lgan ehtiyojni ko'rsatadi. Ayniqsa, Hindiston yarim orolida fors tili leksikografiyasi rivojida Sa'diy asarlariga yozilgan sharh va lug'atlar alohida o'rin tutadi [5].

4. Tarjimashunoslik uchun asos: Ushbu lug'atlar "Guliston"ning boshqa tillarga, jumladan, eski o'zbek tiliga qilingan tarjimalarini tadqiq etishda, tarjimolarning mahoratini, so'z tanlash prinsiplarini, tarjimada duch kelingan

muammolar va ularning yechimlarini qiyosiy o'rganishda bebaho manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotimiz davomida aniqlangan bir nechta qo'lyozma lug'atlar diqqatga sazovordir:

1. "Lug'ati "Guliston" va "Bo'ston": Muallifi va kotibi noma'lum. Pokiston, Ganjbxsh kutubxonasi, PAK-001-1894/7 raqami ostida saqlanayotgan 6 varaqdan iborat juda kichik bir parcha. Asarning to'liq nusxasi mavjud bo'lganmi yoki yo'qmi – noma'lum. Fors tilida. Satrlar soni (12-13), ba'zi varaqalarda matnning qiya yozilishi, so'zlarning alifbo tartibisiz berilishi, bosh so'z va izohning ajratilmagani kabi xususiyatlar uning qadimiyligidan yoki leksikografik ish sifatida dastlabki bosqichda ekanidan dalolat berishi mumkin. Keltirilgan misollar (صدفه – siyohchashm, محرقه – otashkunanda, ادخنه – dudho, لهجه – daryo yo joyi buzurg) lug'atning amaliy yo'naltirilganini ko'rsatadi. Masalan, 'sadafa' so'zining "qorako'z" deb izohlanishi qiziqarli. Chunki fors tilining eng mukammal lug'atlaridan sanalgan "Lug'atnoma Dehxudo"[6] da bu so'zning bunday ma'nosi qayd etilmagan, asosan "sadafnig bir donasi" yoki "o'lovch birligi" kabi ma'nolari berilgan. Bu holat mazkur kichik lug'at parchasining noyob ma'lumot saqlagan bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi yoki so'zning mahalliy (balki majoziy) ma'nosini aks ettiradi.

"Guliston"da bir marta qo'llangan "mustasqiy" lug'atda "obxoh" – tashna deb izohlangan. Boshqa lug'atlar orqali mustasqiy aslida shunchaki tashna odam emas, istisqo – tashnalik, cho'llash kasaliga muhtalo bo'lgan odam ma'nosini anglatishini bilib olamiz. "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati"da "chanqoq", "tashna" deb izohlangan bo'lsa ham [7], unda "Mahbub ul-qulub"dan keltirilgan misol keyingi izoh to'g'ri ekanini ko'rsatadi: "Emak bila ju' ahlidek me'dalariga to'lmoq yo'q, tilamak bila mustasqiydek suvdin serob bo'lmoq yo'q". So'zning bu ma'nosi Sa'diy devoni 9-g'azalidagi ushbu bayt ham asoslaydi:

Guftam: "Magar ba vasi rahoyi buvad zi ishq

Behosil ast xordani mustasqiy obro"[8]

Mazmuni: "Visolga yetishish bilan ishqdan qutilib bo'ladimi. Mustasqiy (tashnalik kasaliga chalingan odamning suv ichgani befoйда)".

Ko'rinadiki, misra mazmunini "tashna odamning suv ichgani befoйда" tarzida tushunib ham, talqin qilib ham bo'lmaydi.

Ogahiy tarjimasida ham ushbu so'z aynan "tashnalik kasaliga muhtalo bo'lgan odam" ma'nosida ishlatilgan:

Husnining o'tig'a ulus biryon

Labi soqiy-yu lek loyasqiy.

Ko'z tamoshosidin dame to'ymay,

Bahrdin ul sifatki mustasqiy[9].

Lug'atlardagi Humoy (همای – nomi jonvare) va Unsuriy (عنصوری – nomi shoire) kabi izohlar ularning yetarli darajada ixchamligidan darak beradi. Bu shuni ko'rsatadiki, lug'at tuzuvchisi bu nomlarni o'quvchi biladi deb hisoblagan yoki faqat eng minimal ma'lumotni berishni maqsad qilgan. Ogahiy tarjimasidagi Humo va Unsuriyga oid baytlarning ["Gulistoni Sa'diy" Ogahiy tarjimasida, №7768, 10b, 23b] mohirona o'girilgani esa tarjimonning nafaqat tilni, balki fors madaniyati va adabiyotidagi bu ramzlarni ham chuqur bilganini ko'rsatadi. Bu lug'atlar, garchi qisqa izoh bersa-da, o'sha davrda qaysi nomlar izohga muhtoj deb hisoblanganini ko'rsatishi mumkin.

Lug'at so'ngida ayrim atoqli otlarga izoh berilgan. Lekin aksar holda bu izohlar o'ta qisqa bo'lib, muayyan atoqli ot mohiyatini ochishga, u haqida ma'lum bir ma'lumot va tasavvurni oshirishga xizmat qilmaydi. Masalan, Humoy همای – nomi jonvare (ma'lum bir jonvor nomi), Unsuriy عنصوری – nomi shoire (bir shoirming nomi) kabi. Bu izohlarsiz ham o'quvchilar Unsuriyning shoir ekanini, Humo ma'lum bir

jonvor, hatto odamlar ko'zidan yiroq, suyakxo'r qush ekanini bilib oladilar:

كس نيابد به زير سايه بوم

ور همای از جهان شود معدوم

Ogahiy tarjimasida:

Tilamas hech kimsa soyayi bum,

Gar humo bo'lsa dahrin ma'dum .

Shayx Sa'diyda:

همای بر همه مرغان از آن شرف دارد

که استخوان خورد و جانور نیاز دارد

Ogahiyda:

Sharif andin erur barcha qushlar ichra humo,

Ki yeb so'ngak tilamas hech jonvarg'a izzo[10].

Lug'atda ayrim xatoliklar ham uchraydi. Masalan, Zamaxshariy nomi Mahshariy tarzida ko'rsatilgan holda, "nomi musannifi "Kashshof" – "Kashshof" muallifining nomi" – deya izoh berilgan. Bizningcha, bu kotib xatosi bo'lib, "Kashshof" asari muallifi nisbasi Zamaxshariy ekanini yaxshi bilganlar.

Zamaxshariy nomi asarda quyidagi hikoyat munosabati bilan kelgan: Allomayi Zamaxshariyning[13] nahvi muqaddimasin qo'liga olib, mundaq o'qur erdikim, "urdi Zayd Amrni, vaholanki, Amr sitam qilg'uvchi erdi". Men anga dedim: "Xitoy bila Xorazm sulh etdilar Amr bila Zaydning xusumati hanuz boqiydurur"... dedim: "Bag'oyat yaxshidurur" va ikki bayt o'qudim, aning tarjimasini bu turur:

Toki ta'bingga havoyi nahvdur

Ko'nglimizdin aql naqshi mahvdur.

Oshiqing poband domi qaydga,

Lek sen mashg'ul Amru Zaydg'a[11].

Asar asliyatida mana shu ikki bayt arab tilida yozilgan.

Demak, Ogahiy ushbu va boshqa asarlardagi arabcha jumla hamda she'riy parchalarni e'tiborga olsak, arab tilidan bevosita tarjima qilgan. Sa'diy qalamiga mansub ushbu ikki baytda arabiyat (arab grammatikasi) istilohlari o'z lug'aviy ma'nolarida ishlatilib, tanosub va iyhomning go'zal namunasi yaratilgan:

Buliytu binahviyyin yasulu mug'odiban

Alayya ka-zaydin muqobilati-l-amri.

Alo jarri zaylun yarfa'u ra'sahu

Va hal yastaqiyu-r-raf'u min omili-l-jarri,

ya'ni "Dumini sudrab, boshini ko'tarmay Zaydning

Amrga dushmanlik qilganidek menga darg'azab holda hujum qilgan nahvchi bilan sinaldim. Axir jarr (sudrash) omili bilan raf' (ko'tarish) bo'ladimi?"

2. "Farhangi "Guliston": Muallifi va kotibi noma'lum.

Pokiston, Ganjbaxsh kutubxonasi, PAK-001-0240/2 raqami ostida saqlanayotgan 44 varaqlik qo'lyozma. Asarning o'z nomi "Farhangi kitobi "Guliston"" deb ko'rsatilgan. Fors tilida. So'zlarning alifbo tartibida berilgani va lug'at maqolalarining qizil siyohda ajratilgani uning yuqoridagi lug'atga nisbatan mukammalroq tuzilganini ko'rsatadi. Har varaqda 32 - 40 ta so'z joylashgani uning o'rtacha hajmdagi lug'at ekanidan dalolat beradi. Masalan, "alif" harfidagi so'zlar soni: $17+33+37+40+28 = 155$ ta) lug'atdagi umumiy so'zlar miqdori taxminan 2500 - 3000 atrofida bo'lishi mumkin (agar barcha harflar shunga yaqin hajmda bo'lsa).

3. "Sharhi lug'oti "Guliston"/"Sharhi mushkiloti "Guliston": Muallifi: Junayd bin Abdulloh al-Musaviy (yoki Mavlaviy). Bir nechta nusxasi ma'lum: Pokiston, Ganjbaxsh kutubxonasi (PAK-001-1396/1 va №8019); Tehron, Milliy Majlis kutubxonasi (IR10-40967-ashyo). Nusxalarning mavjudligi va turli nomlar bilan atalishi uning nisbatan keng tarqalganini ko'rsatadi. Orif Navshohiy tomonidan qayd etilgan hijriy XI asrda ko'chirilgan nusxa (№8019) lug'atning yaratilish davrini aniqlashga yordam beradi[12]. Fors tilida. Lug'atning 3 qismdan iboratligi (she'rlar, hikmatlar/hadislal, leksika) uning oddiy lug'at emas, balki keng qamrovli sharh

ekanini ko'rsatadi. U nafaqat so'z ma'nolarini, balki matndagi adabiy-madaniy kontekstni ham yo'ritishga qaratilgan.

4. "Miftohi "Guliston" ("Farhangi "Guliston"): Muallifi: Uvays A'lo Urf Odam. Tehron, Majlis kutubxonasi IR10-31444 raqami ostida saqlanadi. Muallif 9-10-hijriy (15-16-milodiy) asrlarda yashagan, qo'lyozma esa 1119-hijriy (1707-milodiy) yili Muhiymiddin Dodanchi tomonidan ko'chirilgan. Bu lug'atning ancha avval yaratilib, keyinchalik ham qadrlanib, ko'chirilganini ko'rsatadi. Fors tilida. Ikki qismdan iboratligi va "Farhangi lug'ot" asari bilan bir jildga muqovalangani uning boshqa leksikografik asarlar bilan birgalikda ko'rsatadi.

Ushbu forsiy lug'atlarning eng muhim ilmiy qimmatlari ularning eski o'zbek tili leksikasini, xususan, XIX asr Xorazm adabiy muhitining yirik vakili Muhammad Rizo Ogahiy (1809-1874) ijodini, ayniqsa uning "Guliston" tarjimasini o'rganishdagi o'rni bilan belgilanadi. Ogahiy tarjimasini nafaqat asar mazmunini yetkazish, balki Sa'diyning badiiy uslubi, til boyligini o'zbek tilida qayta yaratishga urinishdir. Bu lug'atlar Ogahiy duch kelgan lingvistik va tarjimonlik muammolarini tushunishga yordam beradi.

Ogahiy forscha so'z va iboralarga o'zbekcha muqobil tanlashda qanday yo'l tutgan? Qadimgi lug'atlardagi izohlar Ogahiy tanlagan so'zning o'sha davr o'zbek kitobxoniga qanchalik tushunarli bo'lganini anglashga yordam berishi mumkin. Masalan, پادشاهی را شنیدم که به کشتن اسیری اشارت کرد jumlasidagi اشارت کرد fe'lini Ogahiyning amr etti deb tarjima qilishi. Bunda Ogahiy so'zning lug'aviy ma'nosi ("imo qildi", "ishora qildi")dan ko'ra, kontekstual ma'nosini – podshohning hokimiyatga xos buyrug'ini – ustun qo'yganini ko'ramiz. Qadimgi lug'atlar bunday kontekstual ma'nolarni ham aks ettirgan bo'lishi mumkin. "Guliston"dagi هاون گرفتن (hovonchada suv tuyish – behuda ish qilmoq) kabi idiomalarning Ogahiy tomonidan qanday o'g'irilgani uning mahoratini ko'rsatadi. Lug'atlar bunday iboralarning asl ma'nolarini aniqlashda muhim.

Tabiiyki, tarjimada asliyatdagi bu xususiyatni saqlab qolish mumkin emas edi. Shuning uchun tarjimon baytlarni qofiya tuzilishini ham o'zgartirgan holda, mazmunini chiroyli holatda yetkaza bilgan.

Yuzosa va takliflar. Qo'lyozma lug'atlarni tadqiq etish, yozma manbalarning til xususiyatlarini o'rganish filologik sohaning asosiy masalalaridan hisoblanadi. Bunday lug'atalarning til xususiyatlarini tadqiq etish yozma yodgorliklarning mazmun-mohiyatini, ilmiy-amaliy qiymatini belgilashda ahamiyatlidir. Qo'lyozma lug'atlar leksikasini o'rganish tilning fonetik, leksik, grammatik tizimiga xos taraqqiyot jarayonini kuzatish imkonini ham yaratadi.

O'zbek xalqining boy ilmiy-ma'naviy merosi, adabiyot va san'ati haqidagi qimmatli ma'lumotlari qo'lyozma manbalarda aks etgan. Mumtoz adabiyot namunalarini asliyat asosida o'rganish, talabalarni qo'lyozma manbalardan xabardor qilish, ularni mutaxassis sifatida tayyorlash oliy ta'lim tizimida madaniy-ma'rifiy saviyaning oshishiga sabab bo'ladi. Qo'lyozma lug'at manbalarning nusxalar matnini chuqur va ilmiy-nazariy jihatdan o'rganmay turib, tilshunoslik ilmining taraqqiy etishi haqida gapirish mumkin emas. Chunki badiiy matn qo'lyozmasi va til tarixi tushunchasi tilshunoslikning tayanch nazariy asoslaridan biridir.

Shayx Sa'diyning "Guliston" asari uchun tuzilgan qadimgi forsiy lug'atlar ko'p qirrali ahamiyatga ega manbalardir. Ular "Guliston" matnini, uning tili va uslubi chuqurroq tushunishga yordam beradi; Fors tili tarixiy leksikografiyasining rivojlanish bosqichlarini o'rganish uchun qimmatli material taqdim etadi; turli davrlar va mintaqalardagi qo'lyozmalar va leksikografik an'analar haqida ma'lumot beradi; "Guliston"ning o'zbek tiliga qilingan tarjimalari, xususan, Muhammad Rizo Ogahiy tarjimasining til

xususiyatlarini, mutarjim mahoratini, eski oʻzbek adabiy tilining fors tili bilan munosabatini va leksik boyishini tadqiq etishda bebaho asos boʻlib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Oʻzbek tili leksikologiyasi. -Toshkent: Fan, 1981. B -198
2. Neʼmatov H. Oʻzbek tili tarixiy fonetikasi. - Toshkent: Oʻqituvchi, 1992. -128 b.
3. Бертельс Е.Э. Избранные труды. [Т.1.] История персидско-таджикской литературы. М., 1960.
4. Баевский С.И. Ранняя персидская лексикография. XI-XV вв. – М.: Наука, 1989, 168 с.
5. Ahmad, Nazir. Some Little Known Persian Poets of the 17th Century A.D. India and Their Diwans. Aligarh Muslim University, 1974.
6. Dehkhoda, Ali-Akbar. Loghatnāmeḥ-ye Dehkhodā. Tehran University Press.
7. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати.2-жилд. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 373.
8. APS NETWORK (M) SDN BHD
9. Гулистони Саъдий. Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти асосий фонди. №7768. 62a
10. Гулистони Саъдий. Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти асосий фонди. №7768. 23б.
11. Шайх Саъдий. Гулистон. Огаҳий таржимаси. Ўзбекистон ФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти Асосий фонди. №7768. 108б